

O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT GERBI

"O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonun 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda so'l tomonida bug'doy boshloqlari, o'ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari suvrati tushirilgan chambardan iborat. Gerbning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerbning markazida himmat, olijanoblik va fidoyilik timsoli bo'lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismida respublika Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambar lentasining bandiga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG'I

"O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun 1991 yil 18 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida qabul qilingan. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi. Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu - yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi. Bayroqdagi oq rang - muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang - poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va hayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli. Yashil rang - tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi. Qizil chiziqlar - vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham. Yulduzlar barcha uchun ruhoniylar, ilohiy tismol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

"O'zbekiston

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT MADHIYASI "O'zbekiston Respublikasining davlat madhiyasi to'g'risidagi" qonun 1992 yil 10 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida qabul qilingan. **Mutal Burhonov musiqasi Abdulla Oripov so'zi** Serquyosh hur o'lkam, elga baxt, najot, Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon! Yashnagay to' abad ilmu fan, ijod, Shuhrating porlasin toki bor jahon! **Naqarot:** Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston, Ajdodlar mardona ruhi senga yor! Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon, Olamni mahliyo aylagan diyor! Bag'ri keng o'zbekning o'chmas imoni, Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot! Istiqlol mash'ali tinchlik poshoni, Xaqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod! **Naqarot:** Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston, Ajdodlar mardona ruhi senga yor! Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon, Olamni mahliyo aylagan diyor! **Madhiyani tinglash** Manbaa: [O'zbekiston Respublikasining Hukumat portali](#)

Ko'rib chiqildi:



- ☒

Vazirlar Kengashi Statistik va
tahliliy ma'lumotlar
Vazirliklar va idoralar Shahar
va tuman hokimliklari
Hujjatlar Respublika
mehmonlariga Elektron
hukumat Interaktiv davlat
xizmatlar